

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**


**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
FARG'ONA FILIALI**

**“Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”
moduli**


2-amaliy mashg'ulot

JISMONIY TARBIYANING USLUBLARI

Reja:



Ta’lim metodlari
va usullari tasnifi.



Amaliy metodga
oid usullar.

Ta'lif metodlari va usullari tasnifi



Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolaning nerv tizimi va butun organizmi nihoyatda plastik va tashqi ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan mashg'ulot olib borganda psixik va jismoniy kuch sarflanadigan to'g'ri vaqt nisbati va undan so'ngi dam olishni belgilash instruktoring muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lif berishda ularning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini xisobga olgan holda, quyidagi **metodlardan** foydalilanildi:

-og'zaki
metod;

-amaliy
metod;

-o'yin
metodi;



-ko'rgazmali
metod;

-musobaqa
metodi.

Og‘zaki metod

Og‘zaki metod - bu metod bolalar ongiga yo‘naltirilgan, ular oldiga qo‘yilgan vazifalarni tushunib olishga va mashqlar mazmuni va tuzilishini o‘zlashtirib olishda katta rol o‘ynaydigan harakatli mashqlarni ongli ravishda bajarish, bu mashqlarni turli vaziyatlarda mustaqil qo‘llashga yordam beradi.



Ko‘rgazmali metod

Ko‘rgazmali metod - bu xissiy idrok va harakat sezgilarining yorqinligini ta’minlaydi.

Ular bolalarda sensor qobiliyatlarini rivojlanishini faollashtiruvchi harakat ekanligi haqida juda to‘liq va aniq tasavvurning hosil bo‘lishi uchun zarurdir.



O‘yin metodi

O‘yin metodi - bolalar bilan ishlashda samarali bo‘lib, ko‘rgazmali obraz va ko‘rgazmali amaliy tafakkur elementlarini hisobga oladi. U turli harakat ko‘nikmalarini, harakatlarning mustaqilligini, o‘zgaruvchan sharoitga nisbatan tezkor javob reaksiyasini bir vaqtda takomillashuviga, ijodiy faollik ko‘rsatishga imkon beradi.



Musobaqa metodi

Musobaqa metodi - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim berishda u faqat pedagogik rahbarlik sharoitida qo‘llanilishi mumkin.

Bu metoddan katta guruhlarda foydalanish mumkin.

Musobaqalar bolalar kuchiga mos bo‘lishi, axloqiy-irodaviy fazilatlarni tarbiyalovchi, o‘z yutuqlarini va boshqa bolalarning muvaffaqiyatlariga ongli munosabatda to‘g‘ri baholash musobaqaning majburiy shartidir.



Amaliy metod

Bolalarni harakatga o‘rgatishda instruktor ko‘rgazmali va og‘zaki usullar bilan o‘zaro bog‘liq turli amaliy usullar majmuasidan foydalanadi.

U mashqlarni, harakatli o‘yinlardagi ayrim rollarni, boshqaruvchi rolini bajarib ko‘rsatadi, bolalarni topshiriqlarga jalg qilib va namuna ko‘rsatib ularni musobaqalarda qatnashishga rag‘batlantiradi.



Bolalarga jismoniy harakatlarni o‘rgatishda hamma metod va usullardan o‘zaro mujassam holda foydalanish lozim. Harakat malakasi harakat texnikasini egallash darajasi bilan belgilanadi.

**E'tiboringiz
uchun
rahmat!**